

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING ILDIZLARI: UNUTILGAN AN'ANALAR VA YANGICHA QARASHLAR

Dilnavoz NAJIMOVA*

Annotatsiya: Fikriy mustaqillikka erishish murakkab jarayon bo'lib, O'zbekiston mustaqillikka erishganiga chorak asrdan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, bolalar adabiyotiga nisbatan yondashuvlarda hali ham sovet davri adabiy qarashlari ustuvorligicha qolmoqda. Zamonaviy tendensiyalar yetarlicha o'rganilmayotgani va amaliyotga joriy etilmayotgani, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida bolalar adabiyotiga ikkinchi darajali masala sifatida qaralayotgani kuzatilmoqda.

Aksariyat tadqiqotlarda o'zbek bolalar adabiyotining ildizlari asosan sovet davri bilan bog'liq tarzda talqin etilmoqda. Aslida, O'zbek bolalar adabiyoti qachon paydo bo'ldi? O'zbek bolalar adabiyotining ildizlarini qayerdan va qaysi davrlardan izlash to'g'ri bo'ladi? Tarixiy manbalar va adabiy yodgorliklar nuqtai nazaridan bu masalaga qanday yondashish mumkin? Sovet davrigacha ham bolalar uchun asar yozish an'anasi mavjudmidi? Mazkur maqolada ushbu savollarga javob topishga uringan holda o'zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni, uning tarixiy ildizlari tahlil etildi. Ushbu tadqiqot o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni va yozma asarlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit So'zlar: *Bolalar Adabiyoti, Luqmon Surasi, Alifbo She'rlar, "Ayyahul Valad", "Qobusnoma".*

The Origins of Uzbek Children's Literature: Lost Traditions and Emerging Trends

Abstract: Achieving intellectual independence is a complex process. More than a quarter-century after Uzbekistan gained independence, Soviet-era literary perspectives continue to dominate approaches to children's literature. Contemporary trends remain underexplored and insufficiently integrated into practice. Additionally, within a market economy, children's literature is often considered secondary.

Most studies trace the origins of Uzbek children's literature primarily to the Soviet period. However, its actual emergence, historical roots, and developmental trajectory warrant deeper investigation. This study examines key questions: When did Uzbek children's literature originate? From which historical periods and sources can its foundations be traced? How do historical records and literary monuments inform this discourse? Did a tradition of writing for children exist before the Soviet era? By addressing these inquiries, the article analyzes the formation, historical evolution, and developmental stages of Uzbek children's literature. It further explores the factors influencing its progression, examines significant literary works, and identifies independent pathways for its future development.

Keywords: *Children's Literature, Surah Luqman, Alphabet Poems, Ayyuhal Walad, Qabusnoma.*

Bolalar adabiyotining nazariy asoslarini tushunish uchun, avvalo, uning tarixini chuqur o'rganish zarur. Mustaqillik davridan boshlab o'zbek bolalar adabiyotining haqqoniy tarixini tadqiq etishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Xususan, professor Rahmatilla Barakayevning "O'zbek bolalar adabiyoti qachon maydonga kelgan?" (Barakayev, 2011: 386-396) maqolasida bu mavzu atroflicha yoritilgan. Tadqiqotchi bolalar adabiyotining shakllanishini ma'rifatparvarlik harakati bilan bog'lab, "Bolalar adabiyoti – ma'rifatparvarlik farzandidir" degan fikrni ilgari suradi va uning ildizlarini jadid adabiyotiga taqalishini ta'kidlaydi. Bu fikr ma'lum darajada to'g'ri bo'lsa-da, islom ma'rifati bilan sug'orilgan o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishini jadidlar davridan emas, balki undan ancha oldin – ilohiy ma'rifat manbalarida izlash yanada to'g'riroq bo'lar edi.

Farzand tarbiyasi – har bir ota-onaning eng katta mas'uliyati bo'lib, jamiyatning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Ushbu jarayonda bolalar adabiyotining o'rni beqiyosdir. Chunki bolalar uchun yozilgan kitoblar tarbiya vositasi sifatida nafaqat jadidlar davrida, balki undan ancha avval ham muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq vaqt o'tishi bilan tarbiyaning mazmuni va unga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib borgan. Shunday ekan, ota-ona farzand tarbiyasida qanday tamoyillarga asoslanishi, unga nimalarni o'rgatishi lozim? Bolalar kitoblari bu jarayonda qanday yordam bera oladi? Bolalar adabiyotini qanday me'zonlar asosida baholash mumkin?

Ushbu savollarga javob izlar ekanmiz, bolalar uchun yozilgan asarlarda shu kungacha qanday qadriyatlar targ'ib qilingan, bolalarga atalgan kitoblarning tarixi qachondan boshlangan

* Tayanch Doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, e-mail: dilnavoznajimova@gmail.com, ORCID: 0000-0003-1181-1856

degan savollar ham o‘rinli. Ba‘zi tadqiqotchilar bolalarga ta‘lim va tarbiya berish maqsadida yozilgan ilk yozma manbalarni Bobil shahridagi Ashshurbanipal kutubxonasidagi mixxat bitiklarida uchratish mumkinligini ta‘kidlaydi (Adams, 1986: 1-30). O‘tmishdan bizgacha yetib kelgan turli manbalar shuni ko‘rsatadiki, har bir davrda bolalar tarbiyasida muhim deb topilgan g‘oyalar aks ettirilgan asarlar yozilgan. Shu jihatdan olganda, bolalar tarbiyasida pand-nasihat janrining o‘rni alohida e‘tiborga loyiq.

Aynan shuning uchun insoniyat tarixida donishmandligi bilan mashhur bo‘lgan Luqmon Hakimning pand-nasihatlariga murojaat qilish o‘rinlidir. Qur‘oni Karimning “Luqmon” surasida aynan shu mavzu yoritilgan bo‘lib, unda ota-onaning farzand tarbiyasidagi roli, unga odob-axloq qoidalarini o‘rgatish va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish naqadar muhim ekani ta‘kidlanadi. Ayniqsa, 13–19-oyatlar farzandga bergan saboqlari bilan ajralib turadi. Bu esa bolalar tarbiyasining shunchaki majburiyat emas, farz darajasidagi oliy mas‘uliyat ekanini anglatadi.

Luqmon Hakimning nasihatlar tarzidagi ushbu oyatlar keyingi davrlarda bolalar uchun yozilgan adabiyotning shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Har bir yozuvchi farzand tarbiyasiga oid asar yozishni o‘ziga farz deb bilgan va dastlabki bolalar uchun kitoblar aynan otaning farzandiga nasihati shaklida yozilgan. “Xususan, bizgacha yozma holatda yetib kelgan Imom G‘azzoliyning “Ayyuhul valad”, Kaykovusning “Qobusnoma” va Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” kabi asarlari aynan otaning farzandga pand-nasihati tarzida yozilgan va ular ota-ona hamda murabbiylar uchun farzand tarbiyasida muhim manba sifatida qadrlanadi.”

Qur‘oni Karimning Luqmon surasida farzand tarbiyasida qaysi fazilatlar ustuvor bo‘lishi va qanday illatlardan qochish lozimligini aniq belgilab bergan. Masalan, Luqmon surasi 13-oyatda shunday deyiladi: Ey o‘g‘ilcham, Allohga shirk keltirma! Albatta shirk – katta zulmdir (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022: 476).

Bu oyatda ota farzandiga qilishi lozim bo‘lgan eng asosiy nasihat – iymon-e‘tiqodni mustahkamlash va shirkdan saqlanish ekanligi ta‘kidlanadi. Payg‘ambarlar davrida odamlar but va sanamlarga ibodat qilib, shirkka yo‘l qo‘ygan bo‘lsalar, bugungi kunda shon-shuhrat, mansab, boylik yoki jamiyatning fikriga haddan tashqari bog‘lanish sababli ko‘plab insonlar Allohni unutib, o‘zlariga va boshqalarga zulm qilmoqdalar. Holbuki, Allohga muhabbat eng oliy fazilatdir, va payg‘ambarlar ham o‘z avlodlariga ushbu fazilatni singdirish uchun duo qilganlar. Masalan, Ibrohim surasi 35-oyatda shunday deyiladi: Esla, Ibrohim shunday demishdi: Robbim, bu yurti omonlik yurti qilgin, meni va bolalarimni sanamlarga ibodat qilishimizdan chetda qilgin! (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022: 267).

Keyingi oyatlarda Luqmon Hakim farzandiga yaxshilik qilish va uning ahamiyati haqida nasihat beradi: Ey o‘g‘ilcham, albatta, u (amal) agar xantal donasicha bo‘lsa-yu, u bir qoyatosh ichida yoki osmonlarda yoxud yerning tubida bo‘lsa ham, Alloh uni keltirur. Albatta Alloh o‘ta lutfli va o‘ta xabardor zotdir (Luqmon surasi, 16-oyat).

Islom ta‘limotida yaxshilikning kattasi yoki kichigi yo‘q. Alloh taolo har qanday ezgulikka in‘om bilan javob beradi. Ammo bugungi zamonaviy adabiyotlarda insonlarning nonko‘rligi, yaxshilikka yaxshilik bilan javob bermasligi haqida ruhiy tushkunlikni aks ettiruvchi fikrlar ko‘proq uchraydi. Islom esa farzandni odamlarning minnatdorchiligini kutish uchun emas, *faqat Alloh roziligi uchun* yaxshilik qilishga chorlaydi. Har qanday ezgu amal, hatto zarracha bo‘lsa ham, hisobga olinadi. Shu sababli inson doimo hushyor bo‘lishi va Alloh har bir ishidan xabardor ekanini unutmasligi lozim.

Luqmon Hakim o‘g‘liga quyidagi amallarni bajarishni tavsiya qiladi: Ey o‘g‘ilcham, namozni to‘kis ado qil! **Yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytar va o‘zingga yetgan musibatga sabr qil!** Albatta, bular azm etilajak ishlardir (Luqmon surasi, 17-oyat) (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2022: 480).

Ushbu oyat islomiy bolalar adabiyotining asosiy mezonini belgilab berdi: uning mohiyati ezgulikka chorlash va yomonlikdan qaytarish tamoyiliga asoslandi. Oradan asrlar o'tib, Dobrolyubov badiiy adabiyotning mohiyatini uch asosiy jihat – ezgulik, go'zallik va donolik bilan belgiladi (Dobrolyubov, 1937: 543). Islomiy an'analar ta'sirida yaratilgan adabiyotlarda esa aynan ezgulikka undash va yomonlikdan qaytarish bosh mezon sifatida qabul qilingan. Shu tamoyilga qat'iy rioya qilgan holda ko'plab asarlar yozilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan jamiyatdagi yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar o'zgarib bordi va bu bolalar adabiyotining ham mohiyati hamda shakllariga ta'sir ko'rsatdi. Dastlab bolalar adabiyoti asosan *1. diniy va pand-nasihat ruhidagi axloqiy kitoblar, 2. o'qish va yozishni o'rgatishga mo'ljallangan ta'limiy asarlar hamda alifbo she'rlaridan* iborat edi. Keyingi davrlarda esa uning mazmuni yanada boyib, turli badiiy hamda ilmiy yo'nalishlar rivoj topa boshladi. *Ta'limiy bolalar adabiyotining* bizgacha yetib kelgan namunalari orasida Anbar Otinning "Alifbo" va Munisning "Savodi ta'lim" risolalarini ko'rsatish mumkin. Munis o'z davrining yetuk murabbiy shoiri sifatida bolalarning savodxonligini oshirish va husnixatni yaxshilash yo'lida izlanishlar olib borgan. "Bilimning eshigi alifbo" degan hikmatni o'z e'tiqodiga aylantirgan Munis, bolalarning alifboni oson o'rganishi uchun 1804-yilda "Savodi ta'lim" risolasini yaratgan. Ikki qism, 17 bobdan iborat bo'lgan ushbu asar nazariy ma'lumotlar va mashqlarni o'z ichiga olgan. Risolaning dastlabki besh bobida hamd, na't va munojot berilib, kitobning yozilish sabablari bayon etiladi. 6–16-boblarda esa husnixat tarixi, ilgari bolalarga xat-savod o'rgatish uchun ishlatilgan risolalarning kamchiliklari ochib beriladi. Munis o'z asarini ilmiy-nazariy asos bilan boyitgan holda, o'z davrining pedagogik ehtiyojlariga moslashtirishga intilgan. Bundan tashqari, u bolalarni yozuv anjomlari – qalam, qalamtarosh, qalamqat, siyoh va qog'oz bilan tanishtirgan. Risolaning 17-bobi esa butunlay amaliy mashqlarga bag'ishlangan bo'lib, unda arab alifbosidagi harflarning 22 xil shakli tasvirlangan. Munis bu jarayonda bolalarga alifboni tushunarli va didaktik usulda o'rgatishga alohida e'tibor qaratgan. "Savodi ta'lim" bolalar adabiyotida nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim asarlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Pand-nasihat ruhidagi asarlar nisbatan ko'proq yetib kelgan. Xususan, Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofilin", Imom G'azzoliyning o'g'liga nasihat tarzida yozilgan "Ayyahul Valad", "Mukoshafatul qulub", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Kaykovusning farzandiga atalgan "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosir Xusravning "Saodatnoma", Shayx Muslihiddin Sa'diyning "Guliston", Abdurahmon Jomiyning o'g'li Ziyovuddinga atab yozgan asari "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Ahmad Donishning "O'g'illarga nasihat", Husayn Voiz Koshifiyning Husayn Boyqaroning o'g'li Abul Muhsiynga atab yozilgan, "Axloqi Muhsiniy" (ikkinchi nomi "Javohir ul-asror") (Wickens, 1984: 724-725), Temuriylar saltanati tarkibida bo'lgan Eronning Dovon viloyatida tug'ilgan Jaloliddin Dovoniyning Oqqo'yunlilar hukmdori Uzun Hasanning Sulton Xalil ismli o'g'ilchasiga bag'ishlab yozilgan "Lavome al-ishroq fi makorim-ul axloq" (ikkinchi nomi "Axloqi Jaloliy") (Wickens, 1984: 724), Abu Tohir Samarqandiyning "Axloqi muzaffariy" asarlarida yuksak insoniy fazilatlar tarannum etilgan, odob-axloqning go'zal namunalari badiiy-falsafiy talqin qilingan va farzand tarbiyasida e'tibor berish kerak bo'lgan eng muhim jihatlar, farzandga o'rgatilishi kerak bo'lgan ilm va peshalar hamda farzandni qaytarish zarur bo'lgan illatlar haqida mushohada yuritilgan. Bu asarlar Movarounnahr va Xuroson hududlarida pedagogik tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutib, jadid maktablari va jadid pedagogikasi rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi jadid mutafakkirlarining pedagogik va axloqiy qarashlari aynan shu asarlar ta'sirida shakllangan. Qur'oni Karimdagi Luqmon surasidan ta'sirlanib, otaning farzandiga nasihati tarzida yozilgan yuqoridagi kitoblar bolalar uchun ham badiiy asar, ham nasihatnoma, ham darslik, ham hayotiy bilimlarni o'rgatuvchi manba sifatida xizmat qilgan.

Ularni o'z davrining bolalar ensiklopediyasi deb atash mumkin. Ushbu maqolada yuqoridagi asarlardan o'zbek tiliga tarjima qilingan namunalarni: Imom G'azzoliyning "*Ey farzand*", Kaykovusning "*Qobusnoma*" va Abdurahmon Jomiyning "*Bahoriston*" asarlarini tayanch obyekt sifatida o'rganish orqali mumtoz adabiyotimizda bolalarga atalgan kitoblarda qanday mavzular yetakchilik qilganligi, ularga badiiy parchalar, hikoyat, she'r va masallarni tanlash va saralashda qanday me'zonlarga amal qilinganligi, fikrni dalillash uchun keltirilayotgan hikoyatlarning badiiylilik ko'lami qanday prinsiplar asosida ortib borganligi tadqiq qilindi.

Abu Homid G'azzoliyning "Ayyuhal valad" ("Ey farzand") risolasi

Abu Homid G'azzoliyning "*Ayyuhal valad*" – "*Ey farzand*" asari XI asrda yozilgan. Ushbu risolaning "*Ayyuhal valadul muhib*", "*Ar-risalatul valadiya*" va "*Ayyuhal valad*" kabi bir necha nomlari bor. Bu risola Imom G'azzoliyning o'z shogirdlaridan biriga bergan nasihat va irshodlaridan iborat bo'lib, kitob o'z davrida talabalarga dastur ul amal va yo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Risolada musulmon oilasida farzand tarbiyasi va odob masalalari keng yoritilgan. Unda kiyinish, tahorat olish, namoz o'qish, masjidga borish, mehmon kutish, savdo-sotiq, qo'l, oyoq, til, quloq va tanosil a'zolariga tegishli odoblar, qo'ni-qo'shni haqlari, muhtojlarning ehtiyojlarini qondirish, bozor-o'charga borish, qarz olish va berish, qo'shnichilik, ustoz va ota-onaga hurmat, olimlarni, oriflarni, murshidlarni, kasallarni ziyorat qilish, taomlanish va taomlantirish, qir-adirda, tog'-u toshda va istirohat maskanlarida bo'lish odoblari, safar va musofirlik, er-xotin munosabatlari kabi turli hayotiy holatlarga doir odob qoidalari bayon etiladi. Shuningdek asarda rajab, sha'bon, ramazon oylarining fazilati, juma va hayit kunlarining fazilati, diniy birodarlik, inson vujudining Alloh omonati ekani kabi mavzular ham yoritilgan. Ushbu mavzularni dalillash uchun uch yuz oltmish to'qqiz hadisi sharif va qirq to'rt avliyo hayotidan olingan hikoyatlar keltirilgan. Muallif odob-axloq qoidalarini shunchaki pand-nasihat tarzida emas, balki so'fiylarning hayot hikoyatlari va qudsiy hadislar misolida bayon qilgan. Bu esa o'quvchi uchun yanada ta'sirchan va tushunarli bo'lishini ta'minlagan.

Muallif ibodat odoblari haqida so'z yuritarkan, farzandning niyati va amali ibodatlarining o'zidan ham ustun turishini ta'kidlaydi. Ushbu fikrni dalillash uchun Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning Abu Hurayraga (r.a.) qilgan nasihatlarini keltiradi. Hadisga ko'ra, inson qanchalik uzoq umr ko'rmasin, uchta fazilat bo'lmasa, uning ibodatlari samarasiz bo'lib qoladi: 1. Bilganiga amal etish. 2. Dunyoviy ehtiyojlarda xasis ham, isrofgar ham bo'lmaslik. 3. Gunohlardan saqlanish (G'azzoliy, 2005: 10). Ushbu fikr bolalar tarbiyasida nafaqat tashqi ibodat amallarini o'rgatish, balki ularga to'g'ri niyat va axloqiy fazilatlarni singdirish zarurligini ko'rsatadi.

Bolaga avvalo nimani o'rgatish kerak, degan savolga javob tariqasida asarda G'azzoliy bolalar tarbiyasida avvalo axloqiy qadriyatlarni o'rgatish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, bolalar kattalarga hurmat, diniy vazifalar va odob me'yorlariga rioya qilishni dastlabki bosqichda o'rganishlari zarur:

"Bolalarga birinchi o'rgatiladigan narsa-kattalarga hurmat. Bu odob o'rgatilayotganda ularga shafqat qanotlarini tutish kerak. Ularni xafa qilmasdan, bezor etmasdan foydali ishlar bilan mashg'ul bo'lishiga diqqatlarini tortish kerak. Bolalarni yetti yoshdan e'tiboran, namoz o'qishga to'qqiz yoshga kirgach, ro'za tutishga odatlantirish, mahram va nomahram mavzularini ularga o'rgatish kerak. Bolalarning ta'lim-tarbiyasi nihoyatda muhim va nozik mavzudir. Bilmaganni bilimdon va samimiy bir mutaxassisdan o'rganish kerak. Qiz bolani kamolga yetkazadigan atrof-muhit, o'quv yurti va maktabni yaxshilab o'rganish lozim. To'g'ri kelgan joyda o'qitish, tarbiyasiga e'tiborsizlik oqibati yaxshi bo'lmaydi. Uylanishda bo'lganidek, kasb tanlashda ma'lum yoshga kirgan navqiron yigit-qizlarga ishonch bildirish lozim. Zo'rlash yo'lidan bormasdan ishontirish yo'lidan borish afzal. Yoshlarni yetuklik, hayot yo'lga yo'llashda islom va zamon shartlari muvofiqligiga e'tibor berish foydalidir" (G'azzoliy, 2005: 33).

Bu qarashlar islomiy adabiyotning bolalar uchun mo'ljallangan namunalarida ham aks etgan bo'lib, diniy mazmundagi bolalar adabiyoti shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Jahon bolalar adabiyotida so'nggi yillarda bolalar uchun anglash qiyin bo'lgan mavhum va abstrakt tushunchalarni tasvirlash tendensiyasi sezilarli darajada kuchaydi. Ayniqsa, bola his qiladigan, ammo nomini aniq bilmaydigan g'azab, mehr, quvonch, baxt kabi hissiyotlarni qahramon sifatida gavdalantirishga qaratilgan badiiy asarlar va audiovizual mahsulotlar ommalashmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida ssenariysi shu tamoyilga asoslangan, o'zbek tiliga "Boshqotirma" nomi bilan tarjima qilingan Inside Out animatsion filmini keltirish mumkin. Ushbu film bolalar ongida murakkab tuyg'ularni obrazli tushuntirishga erishgani bilan xalqaro tan olindi, ko'plab mukofotlarga sazovor bo'ldi va umumiy daromadi 858 million AQSh dollarini tashkil etdi.

E'tiborlisi, taxminan ming yil avval yozilgan "Ey farzand" risolasida ham abstrakt tushunchalarni personaj sifatida tasvirlashning dastlabki namunalari uchraydi. Mazkur asarda aql, iymon va hayo mustaqil obrazlar sifatida namoyon bo'lib, ular o'zaro munosabatlari orqali inson axloqiy kamoloti tushuntiriladi:

"Alloh Odamni (a.s.) yaratdi. Jabroil (a.s.) unga aql, iymon va hayoni keltirib: 'Ey Odam! Allah sizga salom yo'lladi va bu uch narsadan birini tanlashingizni istaydi', dedilar. Odam (a.s.) aqlni tanladi. Jabroil (a.s.) iymon va hayoga: 'Sizlar ajralib, keting', dedilar. Shunda iymon: 'Allah menga aqldan ajralmaslikni amr etdi, men u bilan qolaman', dedi. Hayo esa: 'Allah meni iymonga omonat qildi, u qayerda bo'lsa, men ham o'sha yerdaman', dedi. Shu tariqa uchalasi ham birga qolib, hech qachon ajralmadilar. Demak, kimga aql berilgan bo'lsa, unda iymon va hayo ham mavjud bo'ladi. Kim aqlsiz bo'lsa, u iymon va hayodan ham mosuvo bo'ladi" (G'azzoliy, 2005: 15).

Bu dalil shuni ko'rsatadiki, abstrakt tushunchalarni personaj sifatida gavdalantirish usuli zamonaviy bolalar adabiyotining yutug'i emas, balki ko'p asrlik an'anaga ega bo'lgan badiiy uslubdir. G'azzoliy asaridagi bu yondashuvni o'rganish, uni zamonaviy bolalar adabiyoti kontekstida tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lishi mumkin.

Bola bunday mavhum tushunchalarni dastlab anglashda qiynaladi. Ayniqsa, atrof-muhitni bilishga intilib, "Bu nima?", "U kim?" kabi savollarni tinimsiz beradigan 4-7 yosh oralig'idagi bolalarga "Aql nima?", "Hayo nima?", "Iymon nima?" kabi murakkab tushunchalarni tushunarli tarzda izohlash oson emas. Biroq aynan shu kabi mavzularga oid hikoyalar bolalar intellektual rivojlanishiga hamda ularning mavhum tushunchalarni anglash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Masalan, G'azzoliy imon tushunchasini ramziy talqin qiladi va bu fikrini Qur'on oyatlari hamda hadislariga tayangan holda izohlaydi:

"Imon besh burchli qal'aga o'xshaydi. Birinchi burji oltindan, ikkinchi burji kumushdan, uchinchi burji po'latdan, to'rtinchi burji tunj (bronza, ruh)dan, beshinchi burji misdan. Agar qal'a ichiga o'g'ri kirsan, qimmatli narsalarni o'maradi. Imon qal'asining o'g'risi – shayton. Mis burji – adabdir. Adab bo'lmagan joyga shayton kiradi, ammo adab bor joyga shayton yo'llay olmaydi. Adabli insonning imoni najot topadi. Po'lat – vujud, temir – tan, tunj – farz, kumush – ixlos, oltin esa Allohga yaqinlik ramzidir. Kimning adabi bo'lsa, u sunnatga yo'l topadi. Sunnatga amal qilgan kishi ixlosga erishadi. Ixlosli inson Allohga yaqinlashadi va Alloh rizosiga vosil bo'ladi. Adabsiz inson esa sunnatdan uzoqlashadi. Sunnatdan uzoq bo'lgan kishining farzi qusurli bo'ladi, farzi qusurli bo'lgan kishining esa samimiyati bo'lmaydi. Berganini faqat Alloh roziligi uchun bergan, sevganini Alloh rizosi uchun sevgan va sevmaganini ham Alloh rizosi uchun sevmagan insonning imoni komildir."

Mazkur ramziy talqin, bir tomondan, mavhum tushunchalarni bola ongida yanada aniqroq tasvirlashga yordam berishi, boshqa tomondan esa, bolalar adabiyotida abstrakt g'oyalarni tushuntirish usuli sifatida qo'llanilishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Shu bois G'azzoliy asarlaridagi bu kabi badiiy timsollarni zamonaviy bolalar adabiyotining uslubiy tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Din ahkomlarini tushuntirishda har bir davr o'ziga xos usullarni qo'llagan. Xayriya va sadaqa berishga undash islomiy adabiyotlarda qadimdan mavjud bo'lib, bu mavzuga oid ko'plab hadisi shariflar ham vorid bo'lgan. Biroq Imom G'azzoliy ushbu masalani izohlashda yangi yondashuvni qo'llaydi: u bolaga tushunarli bo'lishi uchun ramziy ifodadan foydalanadi. "Sadaqa berishning fazilati" nomli bobda u berilgan sadaqani jonlantirib, uni shaxs sifatida gavdalandiradi.

Bu usul bolaning yoshi va dunyoqarashiga moslashtirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Chunki bola abstrakt tushunchalarni qabul qilishda qiyinchilik sezadi, ammo jonlantirilgan obrazlar va hayotiy dialoglar orqali bu g'oyalarni yaxshiroq anglaydi. G'azzoliy (2005: 18) bunga quyidagi hadisi sharifni misol keltirib, bolalar uchun yanada jonli shaklda tushuntiradi:

"Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat etadilar: "Bir dona xurmo bilan bo'lsa ham faqirga ikrom etganga o'sha xurmo donasi besh narsani mujdalaydi:

1. Men bir dona edim, meni ko'paytirding.

2. Kichik narsa edim, ulg'aytirding.

3. Men dushman edim, sen do'st aylading.

4. Men yeyilib yo'q qilinardim, meni abadiylashtirding.

5. Hozirgacha sen meni saqlashga harakat etarding, bundan buyon men seni saqlanishingni tilayman".

Bu misol G'azzoliyning didaktik metodlari o'sha davr uchun juda ilg'or bo'lganini ko'rsatadi. U bolalar tushunchasiga mos shaklda murakkab diniy tushunchalarni yetkazish uchun jonlantirish (personifikatsiya) usulidan foydalangan. Ushbu yondashuv nafaqat diniy tarbiya balki bolalar adabiyotidagi zamonaviy badiiy uslublar bilan hamohangdir. Bugungi bolalar adabiyotida ham mavhum tushunchalarni obrazli tarzda jonlantirish orqali tushuntirish tendensiyasi kuzatiladi. Shu bois G'azzoliy asarlarini bolalar adabiyotining ilmiy-nazariy asoslari nuqtayi nazaridan qayta tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, "Ey farzand" risolasi XI asr bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan asarlardan biri sifatida baholanadi. Ushbu asarning yaratilishi bolalarga islomiy, axloqiy va hayotiy bilimlarni sodda, ravon tilda yetkazish zarurati bilan bog'liq bo'lgan. G'azzoliy o'z davrida bolalar tarbiyasi va ma'naviy kamoloti masalasiga chuqur yondashgan bo'lib, murakkab diniy va falsafiy tushunchalarni jonlantirilgan hikoyalar va obrazlar orqali tushuntirishga intilgan.

Shuningdek, ushbu risola bolalar adabiyotining o'sha davrdagi asosiy maqsadi – dinni, axloqiy qadriyatlarni va estetik tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Asarning uslubiy jihatlari, jumladan hikoyaviy yondashuv, jonlantirish san'ati va ramziy ifodalar, uning bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Bunday yondashuv bugungi kunda ham bolalar adabiyotining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, "Ey farzand" risolasi nafaqat diniy ta'limot beruvchi manba, balki bolalar adabiyotining ilk namunalaridan biri sifatida ham ilmiy tahlilga loyiqdir. Bu asar XI asr bolalar adabiyotining tarbiyaviy, didaktik va estetik tamoyillarini aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Kelajakda ushbu risolani bolalar adabiyoti nazariyasi va amaliyoti nuqtayi nazaridan yanada chuqur tadqiq etish muhim ilmiy vazifa bo'lib qoladi.

Kaykovus "Qobusnoma"si O'smirlar Ensiklopediyasi Sifatida

1082–1083-yillarda ota tomondan Somoniylar, ona tomondan esa G'aznaviylar sulolasiga mansub bo'lgan, Eronning Gilon mulki hukmdori Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab fors tilida "Nasihatnoma" asarini yozadi. O'sha davrda ilm-fan va adabiyot tili bo'lgan fors tilida bitilgan ushbu asar muallifning bobosi, podsho Shamsulmaoliy Qobus sharafiga "Qobusnoma" deb nomlangan. Keyinchalik, 1860-yilda Ogahiy tomonidan asar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Asar nasihatnoma janrida yozilgan bo'lib, unda ota

farzandga hayotiy tajriba, axloqiy pand-nasihat va donolik merosi sifatida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Kaykovus o‘z o‘g‘liga murojaat qilib shunday deydi:

Umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo‘lurman. Bilgilki, xalqning rasmi, odati shunday: yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladi va bu topgan narsasini o‘zining eng yaxshi ko‘rgan kishisiga qoldirib ketadi. Men dunyoda mana shu so‘zlarni hosil qildim, sen esa mening uchun eng qimmatbaholisan. Menga safar vaqti yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldingga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan va o‘zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan” (Kaykovus, 2018: 29).

Ushbu satrlar donishmand ota uchun eng qimmatbaho meros bu moddiy boylik emas, balki farzandga bergan ta‘lim-tarbiyasi, unga singdirgan hayotiy pand-nasihatlarini ekanligini ta‘kidlaydi.

Umuman olganda axloqiy kitob bo‘lgan “Qobusnoma” o‘z ichiga olgan mavzulari jihatidan serqirra asardir. “Ey farzand” risolasida asosan islomiy bilimlar namoz, ro‘za, zakot, musulmon axloqiga oid fazilatlar berilgan bo‘lsa, “Qobusnoma”da shariat ahkomlaridan chiqmagan holda maishiy mavzularga, o‘z davridagi muhim deb hisoblangan kasblar, dunyoviy ilmlar va shu kasblarga oid bilimlarga ham alohida o‘rin ajratiladi. Masalan, Parvadigori olamni tanimoq zikrida, Payg‘ambarlar xilqati zikrida, Haq Taologa, uning ne‘matlariga shukrona aytish, ota-onani hurmat qilish, ovqatlanish, hammomga borish, uxlash, mehmon kutish va mehmonga borish odoblari, omonatni saqlash, farzand tarbiyalash, oila qurish, do‘stlashish, afv etish va kechirish, ilm talab qilish kabi masalalar boshqa kitoblarda ham uchraydi. Ammo Kaykovus fikrini dalillashda Qur‘oni Karim va hadisi sharifdan emas, xalifalar, fors podsholarining hayotiy va xayoliy hikoyalaridan misollar keltiradi. Bu orqali o‘quvchini Xisrav Parvez, Buzurgmehr, Anushiravon, Hurmuzd kabi qahramonlar bilan tanishtiradi. Avvalgi kitobda Luqmoni Hakim donishmandlik timsoli sifatida qaralgan va uning nasihatlariga alohida o‘rin ajratilgan bo‘lsa, bunda Donishmand va nasihat qiluvchi qahramon Anushiravon timsolida beriladi va sakkizinchi bobda Anushiravonning nasihatlarini keltiriladi. Suqrot, Aristotel, Pifagor kabi yunon allomalaridan iqtiboslar keltiriladi. Bunda Yaxshilikka undash va yomonlikdan qaytarish - asos masala o‘zgarmaydi. Faqat hikoyalardagi qahramonlar timsoli o‘zgaradi. Kaykovus millat bolalari Forsiy podsholar haqida ko‘proq bilishini istaydi. Kaykovusning novatorligi shundaki u kitobga o‘z davrida har qanday farzand bilishi lozim bo‘lgan dunyoviy bilimlar va o‘sha zamonda yoshlar orasida duch kelingan muammolarga ham alohida o‘rin ajratdi. Xususan, Mazah qilmoq, shatranj, narda o‘ynash odoblari, sharob ichish, ovga chiqish, chavgon o‘ynash, biz bugun taym-menejment deb atayotgan vaqtni to‘g‘ri taqsimlash ilmi, bugun marketing nomini olgan tijorat ilmi (21-bob – *mol jam etmoq zikrida*, 24-bob – *uy va yer sotib olmoq*, 25-bob – *Chahorpoy (ot) sotib olmoq zikrida*, 32-bob – *Tijorat va bozorgonlik rasmi zikrida boblarida bu haqida batafsil ma‘lumot berilgan*) haqida ham o‘z tajribasiga asoslanib qiziqarli fikrlar beradi va shunga oid hikoyatlar keltiradi. Bundan tashqari, Kaykovus o‘z davrida muhim sanalgan fanlar va kasblar haqida ham fikr yuritadi. U insonning ushbu bilimlarni egallashi uchun zarur bo‘lgan asosiy fazilatlarini ta‘kidlab, turli boblarda yoritadi. Masalan, 33-bobda tibbiyot, 34-bobda astronomiya va geometriya, 35-bobda shoirlik, 36-bobda hofizlik va sozandalik, 38-bobda podshoga nadimlik, 39-bobda dabirlik va kotiblik, 40–43-boblarda esa harbiy boshqaruv, davlat boshqaruvi va dehqonchilik haqida o‘z qarashlarini bildiradi. Aslida, Kaykovus ilmni diniy va dunyoviyga ajratmaydi, balki har ikkisini ham o‘z zamonida farzandni tarbiyalashda lozim bo‘lgan yaxlit ilm sifatida qaraydi. Ammo dunyo saroyi ichida toatni unutmaslikka chorlab, quyidagi fikrni keltiradi:

Bu jahon bir ziroatgohdur, har nima eksang, shuni o‘rsan va har na so‘z desang, shuning javobin eshitursan. Degilkim, dunyo joyi foni va oxirat saroyi boqiydur. Bu joyda iffatli, parhezkorlarning himmati she‘rlarning himmatidekdur. It har saydnikim olsa, o‘sha joyda yer. Sher saydniki olsa boshqa joyda yer. Bu oriyat saroyi sening sadgohingdur va Tangri

Taoloning ibodati sening saydingdur. Agar dunyo saroyida toat saydini inkor qilsang, oqibatining mujibi bo'lar (Kaykovus, 2018:16).

Shu bilan birgalikda farzand ota-onasi kim, nasl-nasabi qanday bo'lishidan qat'i nazar hunar o'rganishga targ'ib qilinadi: Bilursanki, xori mug'ilonning (tikanli buta) tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur (Kaykovus, 2018:32).

Asarda muallif duch kelgan kerak, nokerak ilmni emas amaliy ahamiyatga ega ilmni o'rganishga chaqiradi. U inson uchun eng qimmatli boylik – vaqt ekanligini ta'kidlab, uni foydali kasb-hunar o'rganishga yo'naltirish zarurligini ilgari suradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar va nufuzli universitetlarda eskirgan kasblarning o'rnini inson tafakkuri va ijodkorlik qobiliyatiga asoslangan yangi yo'nalishlar egallayotgani kuzatilmoqda. Bugungi kunda ko'plab kasblarni texnologiyalar egallayotgani inobatga olinsa, Kaykovusning “Qanday hunarni o'rganish kerak?” degan savoli yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

“Barcha hunardin so'z hunari yaxshiroqdir, nedinkim, hamma maxluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o'zga jonivorlardin odam o'n daraja ziyodadur va bu o'n daraja odamning badanida hamisha bordur. Beshi tashida zohirdur, beshi ichida pinhondur. Ul pinhon narsalar: biri bir narsani yod olmoq; biri hamisha esda saqlamoq; biri taxsaiyyul (xayolotning kengligi), biri tahavvur (mulohazakorlik, shiddat bilan fikrlash), biri takallum (so'zlash). Ammo ul beshtakim tashida zohirdur; bu zavq, ya'ni eshitmoq, ko'rmoq, hid bilmoq, totmoq, siypalamoq ya'ni sezuv. Shularni bilg'oningdan so'ng tilingni yaxshi hunar bila o'rgatgil” (Kaykovus, 2018: 34).

Kaykovus “Qobusnoma” asarining 10-bobida vaqtni samarali taqsimlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Muallif inson vaqtni rejalashtirish orqali muvaffaqiyat sari intilishi mumkinligini ta'kidlaydi hamda uni podshoh darajasiga tenglashtiradi. Kaykovus o'z tajribasiga tayangan holda, vaqt taqsimotida avom va donishmandlar o'rtasidagi tafovutni quyidagicha izohlaydi: avom tartibsiz harakat qiladi va vaqtini nazorat qila olmaydi, aqlli insonlar esa har bir ish uchun belgilangan vaqt ajratadi, shuningdek, kecha va kunduzni 24 soatga bo'lib, ishlarni tartibli amalga oshiradi. Muallif insonni vaqtni to'g'ri boshqarish orqali ommaviylikdan ajralib, yuqori maqomga erishishga undaydi. Bu qarashlar zamonaviy fan va menejment nazariyalariga hamohang bo'lib, bugungi kunda samarali vaqt taqsimlash va rejalashtirish muhim kompetensiyalar sirasiga kiradi.

Bundan tashqari, “Qobusnoma”ning 35-bobi o'z davrida she'rga qo'yilgan talablar va estetik mezonlar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Kaykovus she'r yozishda xalq uchun tushunarli va foydali bo'lgan uslubni targ'ib etadi. U murakkab va tushunarsiz iboralardan foydalanishni tanqid qiladi hamda badiiy san'at faqatgina elita vakillari uchun emas, balki keng ommaga mo'ljallangan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Muallifning “O'zgalar sharhiga muhtoj bo'lgudek so'zni aytmag'il” degan fikri san'atning muloqot vositasi sifatida xizmat qilishi lozimligi haqidagi qarashlari bilan bog'lanadi. She'riyatga qo'yilgan ushbu talablarni bolalar adabiyotiga ham tatbiq etish mumkin. Chunki bolalar uchun yozilgan asar ularning yoshiga mos, tushunarli, ohangdor va yodda qoluvchi shaklda bo'lishi muhim omillardan biridir. Aks holda, matn bolalar uchun qiziq bo'lmaydi va adabiy saralashning ilk bosqichidayoq o'z o'quvchisini yo'qotishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Kaykovus “Qobusnoma”da diniy-tasavvufiy, siyosiy, badiiy va ijtimoiy-maishiy masalalarni yoritib, o'z davri ilmiy-intellektual qarashlarini aks ettirgan. Asar mazmuni va uslubi uni o'smirlar uchun yozilgan ensiklopedik qomus sifatida baholash imkonini beradi. Shu bois “Qobusnoma”ni nafaqat tarixiy-badiiy manba, balki o'sha davr ilmiy-axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim pedagogik asar sifatida ham tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

“Bahoriston”da Farzand Tarbiyasiga Oid Sakkiz Masala

Abdurahmon Jomiy tomonidan 1486–1487-yillarda yozilgan “Bahoriston” asari Eronda “Ravzat ul-ahyor va tuhfat ul-abror” (Yaxshi kishilarning fazilatlar va nodir ne’matlar bog’i) nomi bilan ham mashhur bo’lib, u farzandi Ziyovuddin Yusufga bag’ishlangan (Encyclopaedia Iranica). Ushbu asar yozilgan davrda Ziyovuddin Yusuf o’n yoshda bo’lgan. Keyinchalik “Bahoriston” fors tili, adabiyot va axloq fanlarini o’qitishda eski maktab darsliklaridan biri sifatida keng qo’llanilgan.

XIV asrda maktab dasturlarida bolalarga, avvalo, arab tili grammatikasi, to’g’ri yozish va talaffuz qoidalar hamda Qur’on o’qish ilmi o’rgatilgan. Muallif asar muqaddimasida bolalar va tajribasiz yoshlarning murakkab terminlar hamda tushunilishi qiyin matnlarni o’rganishda qiynalishi mumkinligini ta’kidlab, ularning tushunish qobiliyatiga mos adabiyot yaratish zarurligini ilgari suradi. Shu sababdan, Jomiy o’g’li Ziyovuddinga Muslihiddin Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asaridan parchalar o’qib berganini va shu tajriba uni “Bahoriston”ni yozishga undaganini bayon qiladi

“Ma’lumki kichik bolalar va tajribasiz yoshlarning qulog’iga notanish atamalar va tabiatidan uzoq xotimalarni o’rganishdan ularning qalbi cho’chidi. Xotiraga dahshat g’ubori o’tiradi; shunday bo’lgach, uning diliga muruvvat, xotiriga quvvat berish maqsadida goh-goh Muslihiddin Sa’diy Sheroziyning “Guliston”idin bir necha satrlar o’qilar edi. Shu asnoda xotirimga uning sharif so’zlaridan ilhomlanib, shu turda va uslubda bir necha varaq ijod qilib, hozirlarga doston va g’oyiblarga armug’on etish fikri keldi. Va bu ma’no anjomini topib bu surat oxiriga yetdi...”

Bu “Bahoriston” sakkiz ravza – bog’dan tashkil topgan bo’lib, bu Jannat ravzalarining har birida o’zgacha gullar jilvasi va o’zgacha rayhonlar atri. Buning gullari kuz shamolidan xazon bo’lmaydi va rayhonlari qish sovug’idan so’lmaydi. Biror ilinj tikanagidan xoli va biror tuhfa talab xashagidan pok bu bog’ni sayr etuvchilarga birgina iltimos: bu bog’ni sayr etib, tomosha qilar ekanlar, bu chamanni o’stirguncha jigari qon, dili biyron bo’lgan bog’bonni duo bilan yod etib, maqto’v bilan shod aylasunlar” (Jomiy, 1979: 7-8).

Ushbu fikrdan Jomiyning o’z davridagi bolalar adabiyotiga qo’yadigan talablari anglashiladi: **Birinchidan**, bolalar adabiyoti bolaning qalbiga muruvvat bera olishi kerak. Muruvvat (مُرُوَّت) – arabcha 1. Saxovat, mardlik, olijanoblik, mehribonlik. 2. Xushmuomalalik, hurmat, xushxulqlik, odob. 3. Insoniylik, odamgarchilik. 4. Ichki jasorat va matonat degan ma’nolarni anglatadi (Rekhta Dictionary) Alisher Navoiyning “Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo’q, Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo’q”, – degan misrasidan muruvvat o’zi yemasa-da qorni och insoni o’ylab unga nonini, hech yo’qsa shirin so’zini ulasha oladigan darajadagi mardlik, olijanoblik va saxovat ekanini anglaymiz. Bugungi kunda urdu tilida ham keng ishlatiladigan ushbu so’z ko’proq xushmuomala bo’lish, odob, mehribonlik ma’nosida qo’llaniladi (UrduPoint Dictionary). Demak, Jomiyning fikricha, bolalar adabiyoti bolaga, avvalo, o’zgalar dardini his qila olishni, mardlikni, xushmuomalalik va mehribonlikni uyg’ota bilishi lozim. **Ikkinchidan**, bolalar adabiyoti bolaning xotiriga quvvat berishi lozim. Ya’ni, bola asarning mazmunini tushunishi va esda saqlashi oson bo’lishi zarur. Matnlar bolaning yoshiga mos shakllantirilib, hajmi va tuzilishi bolaning diqqatini jamlay oladigan darajada bo’lishi lozim. Asarning ohangi o’quvchini chalg’itmasligi va uni yakuniga qadar qiziqтира olishi lozim. **Uchinchidan**, Bolalar asarlarida ko’tarilgan mavzu va muammo eskirmaydigan, “kuz shamolidan xazon bo’lmaydigan” umrboqiy mavzuda yozilgan bo’lishi lozim. Sobiq Ittifoq davrida bolalar adabiyoti davr idelologiyasining kuychisiga aylandi. Va afsuski, ularning aksariyati bugun unutildi. **To’rtinchidan**, bolalar ijodkori ta’madan, shon-shuhrat, mukofot ilinjidani xoli ijod qilishi lozim.

“Bahoriston”ning uslubi ham bolalar adabiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Asar nasriy shaklda yozilgan bo’lishiga qaramay, saj san’atidan foydalanilgani sababli ritmik va ohangdor. Fors tilini bilgan, asarning orginalini o’qiy olgan inson buni his qiladi. Har bir fikr

yakunida she'riy xulosa beriladi. Asarda jami 469 ta she'r bo'lib, ularning 16 tasi arab, qolgani forsiy tilda yozilgan.

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asari sakkiz ravzadan (bog'dan) iborat bo'lib, bu tuzilish tasodifiy emas. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, sakkiz bog' Jannatning sakkiz darvozasi va komillikka erishishning sakkiz bosqichi bilan bog'liq. Asarning birinchi ravzasini Shoislom Shomammedov "Darveshlar bobida" deya tarjima qilgan. Ravza Qur'oni Karimning "Luqmon" surasidagi nasihatlariga hamohang bo'lib, unda farzandga Allohning birligi va taqvo asosiy qadriyat sifatida ko'rsatilgan. Xuddi shu kabi, "Ayyuhal valad" va "Qobusnoma" asarlarida ham dastlabki fikrlar Allohga iymon keltirish va Unga muhabbat bilan boshlanadi. Jomiy ushbu an'anani davom ettirib, birinchi bobni din ulamolari va mashhur shayxlarning ibratli hikoyalariga bag'ishlagan. Biroq tarjima jarayonida bu bobdagi ba'zi diniy mavzular sovet davridagi senzura sabab chiqarib tashlangan. Shu sababli, ayrim boblarda diniy va tasavvufiy motivlar qisqartirilgan yoki siyosiy kontekstga mos ravishda talqin qilingan.

Tasavvuf ta'limotida so'fiylik "o'zdan voz kechish, dunyo havaslaridan xalos bo'lish va Alloh yodi bilan yashash" deb talqin qilinadi. Biroq tarjimalarda bu tushuncha ijtimoiy tenglik g'oyasi bilan bog'lab tushuntirilgan. Natijada, so'fiylikdagi "boylik va mol-dunyodan voz kechish" g'oyasi sobiq ittifoq mafkurasida boylikni taqsimlash va teng jamiyat yaratish kabi ma'nolar bilan almashtirilgan. Bu holatni tasdiqlovchi misollardan biri sifatida "Bahoriston" asarining quyidagi hikoyasi keltirilishi mumkin:

"Shayx Abu Said ibni Abul Xayrdan:

-So'fiylik nimadan iborat? – deb so'raganlarida u shunday javob beribdi:

-Boshingdan borini chiqarib tashla, qo'lingda borini berib yubor, senga nima qilsalar chida" (Jomiy, 1979: 10).

Mazkur rivoyatning sovet mafkurasida nuqtayi nazaridan talqini boylarni yo'q qilish va ijtimoiy tenglik g'oyasini mustahkamlash maqsadida ishlatilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ushbu jarayon natijasida asarning dastlabki diniy va tasavvufiy mazmuni qisman yo'qotilgan, bu esa davr mafkuraviy talablarining adabiy tarjimalarga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganish uchun muhim misollardan biri hisoblanadi.

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarining *ikkinchi ravzasi* "Donolar hikmati bobida" deb nomlanib, unda sharq falsafasi nuqtai nazaridan dono inson tushunchasi hamda axloqiy fazilatlar yoritiladi. Ushbu bobda insoniy mukammallik, tashqi ko'rinish va ichki bilim uyg'unligi, botiniy va zohiriy go'zallik, hasad va ta'madan voz kechish, boylikka mag'rur bo'lmaslik, foydali ilmni o'rganish va unga amal qilish, foydasiz ilmni axtarmaslik, so'z so'zlashdan oldin o'ylash, zavol topadigan narsani ne'mat bilmaslik va unga ko'ngil bermaslik kabi masalalar keng muhokama qilinadi. Ushbu bobda Jomiy o'z g'oyalarini mustahkamlash uchun turli tarixiy shaxslar ishtirokidagi hikoyatlardan foydalanadi. Jumladan, Iskandar, Faridun, Xusrav, Qaysar, Chin xoqoni, Hind maliki, Bag'dod halifasi, Rum faylasufi, Hind hakimi va Buzurgmehr kabi tarixiy va afsonaviy shaxslarning donishmandligi aks ettirilgan hikoyatlar keltiriladi. Jomiyning pedagogik yondashuvi shundaki, u falsafiy fikrlarni nazariy bayon qilish bilan cheklanmay, ularni hikoyatlar orqali tushuntiradi va she'riy parchalar bilan xulosa qiladi. Jomiyning falsafiy yondashuvi hikoyatlar orqali yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Masalan, ilm insonni sharaflaydi degan g'oyani mustahkamlash uchun Jomiy quyidagi hikoyatni keltiradi: "Iskandar bir bilimdon kishini yuqori mansabidan olib tashlab, oddiy lavozimga tayinlaydi. Oradan vaqt o'tib, Iskandar undan yangi ish joyi borasida fikr so'raydi. Bilimdon kishi shunday javob qaytaradi: "Podshohning umri uzoq bo'lsin, odam amali bilan emas, balki amal odam bilan sharaf topadi. Har bir ishda odillik va insof lozim." Ushbu so'zlar Iskandarga ma'qul kelib, u bilimdon kishini avvalgi lavozimiga qaytaradi." Hikoyat yakunida Jomiy quyidagi she'riy to'rtlik orqali asosiy fikrni xulosa qiladi:

Baland mansab tepasida ham,

Ilm oshirmoq fikrin qil har dam.

Mansab bilan balandmas odam.

Mansab odam bilan muhtaram (Jomiy, 1979: 22).

Muallif dono insonni faqat ilm va tafakkur egasi sifatida emas, balki axloqiy barkamollikka intiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Ushbu bob insoniy kamolotga erishish yo'lida ilmning ahamiyatini yoritish bilan birga, axloqiy fazilatlarining shaxs rivojidadagi o'rni va rolini ta'kidlaydi.

Uchinchi ravza Shohlik va adolat bobida deb nomlangan. Jomiy hukmdor uchun zarur bo'lgan eng asosiy ilm odillik ilmi deb hisoblaydi. Podsho yonida yuruvchi lavozimlarga qo'yiladigan talabalarini ham shu bobda aytib o'tadi. Podsholar va unga yaqin kishilar hayotida sodir bo'lgan ibratli voqealar hikoya qilinadi. Farzand tarbiyasida jazolashning samaradorligi ko'plab psixolog va pedagoglar tomonidan muhokama qilingan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolani xatti-harakatlari uchun jazolash o'rniga, uning noto'g'ri qarorlar sabablarini tushuntirish va muammolarni ongli ravishda hal qilishga o'rgatish samaraliroq bo'lishi mumkin (Vygotsky, 1978; Piaget, 1952). Bu borada Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida keltirilgan quyidagi hikoya muhim ahamiyatga ega: "Xoshimiylar avlodidan bo'lgan bir bola obro'li bir arboba beadablik qildi. Arboba bolaning amakisiga shikoyat qildi va uni jazolashni so'radi. Amakisi bolaning adabini berib qo'yishni maqsad qildi. Ey amaki, – dedi bola, – men qilar ishimni qilib qo'yibman, aqlim yo'q ekan. Endi sen nima qilsang qil, ammo unutmaginki, sening aqling bor" (Abdurahmon Jomiy, 1979: 30). Ushbu rivoyatda bolani jazolash emas, balki unga ongli yondashish lozimligi ta'kidlangan.

To'rtinchi ravzani "Saxovat va Karam bobida" deb nomlaydi. Hatto shunchaki minnatdorchilik eshitish ilinjida qilingan ish saxovat emas, savdogarlikdir, saxovatning o'zagi uning ta'masizligida ekanini ta'kidlaydi:

Saxovatdan kimning maqsadi –

Agar bo'lsa shuhrat, ovoza,

Ahli karam shahrida unga,

Har doimo bekdir darvoza (Jomiy, 1979: 32).

Beshinchi ravza "Do'stlik va muhabbat bobida", *6-ravza* "Mutoibot" deya nomlangan. Bunda insonlar tabiatidagi, jamiyatdagi ayrim yaramasliklar kulgiga olingan. Masalan, qalam ahli ichida ko'chirmakashlik illati odamni kulgiga solib qo'yishi mumkinligi quyidagi mutoyibada hajv qilinadi: "Sohib Abbod huzuriga bir shoir kelib qasida o'qidi. Uning har bir bayti o'zga bir devondan, har ma'nosi boshqa bir suxandondan edi. "Ajoyib bir karvon yetaklab kelibsan", - dedi Sohib. – Agar tuyalarni yechib yuborsang, har biri o'z galasiga qaytadi. Sening karvoningda hech nima qolmaydi."

Yettinchi ravza "She'r va shoirlik bobida" deb nomlanib, an'anaviy ta'lim muassasalarida adabiyot fanini o'qitishda muhim manba sifatida foydalanilgan. Ushbu bob she'rning ta'rifi bilan boshlanadi. Jomiy ta'rifiga ko'ra, she'r tinglovchining tafakkurini jonlantiruvchi hamda unga ilhom bag'ishlovchi san'at turidir.

Yuziga tashlab majoz kokilin,

Pardadan cho'zar haqiqat tilin.

Demak, she'rni teran idrok etish uchun undagi majoz ortidagi haqiqatni anglash zarur. She'rning badiiy barkamolligi qofiya, vazn, radif hamda tashbih, tajnis, tarse, iyhom kabi san'atlar bilan mustahkamlanadi. Bundan tashqari, mazkur bob antologik xususiyatga ega bo'lib, unda Jomiy Movarounnahr va Xuroson adabiyotining mashhur vakillari haqida ma'lumotlar berib, ularning ijodidan namunalarni keltiradi. Asar boshida shoirlar tanlanish prinsipiga oid quyidagi fikr bildiriladi: "Shoirlarning soni sanog'i yo'q. Ularning har biri haqida mufassal bayon qilish imkoni mavjud emas. Shu sababli, bir necha mashhur shoirlarni tilga olish bilan kifoyalanamiz."

Jomiy ushbu ixcham asarida farzandiga eng mashhur shoirlarning taniqli baytlarini taqdim etadi. Umumiy hisobda 22 nafar shoir (Rudakiy, Daqiqiy, Imora, Unsuriy, Asjadiy,

Farruxiy, Firdavsiy, Nosir Xusrav, Amir Muizziy, Adib Sobir Termiziy, Anvari, Rashididdin Vatvot, Afzaliddin Xoqoniy, Faxr Jurjoniy, Nizomiy, Salmon Sovajiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy, Orif Haraviy, Alisher Navoiy) hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumotlar berilib, ularning asarlaridan namunalar keltirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Jomiy 10 yoshli farzandiga badiiy asarlarning faqat mashhurliqi emas, balki uning yoshiga mosligi va tushunish darajasiga mosligi nuqtayi nazaridan parchalar tanlagan. Masalan, Asjadiydan keltirilgan qovunga bag'ishlangan she'r mazmun va shakl jihatidan bolalar topishmoqlariga yaqin:

Ul zabarjad rang-u mushkin bo'y-u ta'midir asal,

Ud isi anqib turodur to'ni shohi beqasam.

So'ysa yangi oy o'rog'idek chiqar har bir tilim,

So'ymasa oy qursidek porlab turodur unda ham.

So'nggi – *sakkizinchi bob* masallardan iborat bo'lib, unda Jomiy hayvonlar bosh qahramon sifatida keltirilgan masallar orqali farzandini tabiat bilan hamohang bo'lishga undaydi. “Kalila va Dimna”, “Guliston” kitoblarini o'qigan bola uchun “Bahoriston”dagi deyarli barcha masallar tanishdek tuyuladi. Ammo, masallar yuzasidan Jomiyning chiqargan xulosalari eski masallarga yangicha ma'no yuklaydi. Masalan, xipchabel tulki bilan do'st tutinib, bog'bonning uzumzoridan qorni shishguncha uzum yeb, keyin teshikdan sig'may savalangan, po'sti shilinib, dumi yulinib, tor-u tang teshikdan arang chiqib ketgan bo'ri haqidagi masal barchaga birdek tanish. Jomiy uzumzorni – bu dunyo, teshikni – oxirat bo'ri va tulkini esa bu dunyodagi ikki turdagi insonga o'xshatadi. Bo'ri toifasidagi odamlar bu dunyo ne'matlariga xirs qo'yib, umri bo'kkunicha bu dunyodagi nematlarni to'plash bilan o'tadi, ammo u dunyoga bularning birortasini olib ketolmaydi, tulki kabi zakiy kishilar bu dunyo nematlaridan ham zaruriy miqdorda bahramand bo'ladi, ammo oxirat haqida unutmaydi, umrini bu dunyo matohlariga bog'lanib o'tkazib yubormaydi degan xulosa chiqaradi.

So'nggi ellik yil ichida bolalar va o'smirlar adabiyotida muammoli adabiyot (problematic literature) deb ataluvchi yangi yo'nalish shakllangan. Ushbu yo'nalishning asosiy maqsadi bolalar va o'smirlarga duch keladigan psixologik, ijtimoiy va jismoniy muammolarni aks ettirish hamda ularni badiiy asarlar vositasida tahlil qilishdan iborat. O'smirlik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda jismoniy o'zgarishlar, tashqi ko'rinishdan qoniqmaslik, o'ziga ishonchsizlik kabi omillar shakllanadi (Erikson, 1968). Masalan, husnbuzarlar paydo bo'lishi, bo'y o'sishi yoki aksincha, past bo'lib qolishi, tana tuzilishining semiz yoki ozg'in bo'lishi kabi holatlar o'smirlarda psixologik noqulaylikni keltirib chiqarishi mumkin. O'z vaqtida hal etilmagan bunday muammolar insonning keyingi hayotida ham o'zini baholash jarayoniga ta'sir ko'rsatib, tashqi ko'rinishidan doimiy norozilik hissini shakllantirishi mumkin. Natijada, ayrim hollarda shaxs plastik jarrohlik kabi tashqi ko'rinishni o'zgartirishga qaratilgan choralarga murojaat qiladi (Cash and Pruzinsky, 2002). Bunday vaziyatlarda o'smirlarning o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirishda to'g'ri tanlangan adabiyot muhim rol o'ynaydi. Xususan, Abdurahmon Jomiyning Bahoriston asaridagi 8-ravzadan olingan quyidagi masal shu maqsadda qo'llanilishi mumkin. Ushbu masalda o'zini qabul qilish va tashqi ko'rinishga oid muammolarga falsafiy yondashuv ifodalangan bo'lib, u o'quvchilarga o'zining tabiiy qiyofasini anglash va qadrlash g'oyasini yetkazadi. Shu sababli, bunday adabiy manbalar o'smirlar uchun psixologik qo'llanma sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

“Bog' sahnida qarg'a bilan tovus uchrashib qoldi va bir-birin aybini yuziga soldi:

–Sening oyog'ingdagi qizil etiklar mening zarrin atlas va naqshin kimxob libosimga yarashadi, – dedi tovus, – yo'qlikning qaro tunidan borliqning ravshan kuniga o'tish vaqtida adashish ro'y berganga o'xshaydi. Men sening qora bujir etigingni kiyibman, sen esa mening qizil saxtiyon etigimni kiyibsan.

– Yo‘q, – dedi qarg‘a unga, – aksincha, agar adashish ro‘y bergan bo‘lsa, kiyim kiyishda adashilgan, chunki sening kiyimlaring mening etiklarimga mos keladi. Ehtimol, uyqusirab sen mening kiyimlarim yoqasiga bosh tiqqansan, men sening kiyimlaringga siqqanman.

Yaqin joyda o‘tlab yurgan bir toshbaqa bu tortishuvni eshitib dedi:

– Ey aziz do‘stlar, sohibtamiz og‘aynilar, bu foydasiz baxsni nari suringlar va be‘mani tortishuvni to‘xtatib turinglar. Xudo hamma narsani bir kishiga bermaydi, hamma istak jilovini bir qo‘lga tutdirmaydi. Har kishida biror xususiyat borkim, boshqalarda yo‘q. Har bir kishi o‘zida boriga xursand bo‘lishi va topganidan ko‘ngli to‘lishi kerak.”

Ushbu g‘oya muammoli adabiyotning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda o‘zini anglash va psixologik barqarorlikni shakllantirish bilan hamohang. Jomiyning asari sharqona falsafiy yondashuv orqali shaxsiy qadr-qimmat va o‘ziga bo‘lgan munosabatni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Va yuqoridagi dalil muammoli adabiyot yo‘nalishining dastlabki elementlari sharq adabiyotida o‘rta asrlardayoq shakllana boshlaganini ko‘rsatadi.

Jomiyning bolalar tarbiyasiga oid yondashuvi nafaqat o‘z davrida, balki zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. U tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar hozirgi kunda ham bolalar adabiyoti va tarbiyasiga oid ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, “Bahoriston” nafaqat bolalar adabiyotining tamoyillarini belgilab bergan, balki umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi nodir asar sifatida bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek bolalar adabiyoti shakllanish jarayoni faqat sovet davri yoki jadidlar harakati bilan bog‘liq emas, balki uning ildizlari ancha qadimiy manbalarga borib taqaladi. Dastlab islomiy g‘oyalar asosida shakllangan bolalar adabiyoti axloqiy tarbiya va diniy qadriyatlarni singdirish maqsadida rivojlangan. Sharqda Luqmon surasi ta‘sirida otaning farzandga nasihati shaklidagi asarlar keng tarqalgan bo‘lib, bu an‘ana o‘zbek bolalar adabiyotida uzoq davom etgan. Ushbu yo‘nalish vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, nasihat shaklidagi bevosita didaktik adabiyot o‘rnini badiiy hikoya qilish usullari egallay boshladi.

Vaqt o‘tishi bilan bolalar adabiyoti mavzu jihatidan kengayib, faqat diniy-axloqiy yo‘nalishdan pedagogik, estetik va ilmiy yondashuvlar uyg‘unlashgan shaklga o‘tgan. G‘azzoliy hikoya qilishni nasihatdan samaraliroq deb baholagan bo‘lsa, Kaykovus va Jomiy bolalar tarbiyasida bilim, kasb-hunar, axloqiy fazilatlar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratgan. Jomiy esa mashhur masallarga yangicha talqin berib, bolalarda turli nuqtai nazardan yondashish qobiliyatini shakllantirishga intilgan. Shu bilan birga, mumtoz bolalar adabiyoti ensiklopedik va sinkretik xarakterga ega bo‘lib, unda diniy, ilmiy va ma‘naviy qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlashgan.

Bugungi bolalar adabiyoti janr va mavzu jihatidan kengaygan bo‘lsa-da, uning tarixiy an‘analari to‘liq saqlanib qolmagan. Jumladan, otaning farzandga nasihati shaklidagi asarlar yo‘qolgan, didaktik unsurlar bevosita emas, balki badiiy obrazlar, zamonaviy syujetlar va bolalar psixologiyasiga mos yondashuvlar orqali ifodalanmoqda. Shu bilan birga, bugungi bolalar adabiyotida yosh o‘quvchilar ehtiyojlariga mos yangi pedagogik va psixologik usullar qo‘llanilmoqda, ular orasida fantastik hikoyalar, zamonaviy qahramonlar, ekologik va ilmiy mavzulardagi asarlar alohida ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti dinamik jarayon sifatida doimo rivojlanib boradi, lekin uning ezgulikni targ‘ib qilish, yomonlikdan qaytarish, bolalarni hayotga tayyorlash va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish kabi asosiy tamoyillari doimiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu xulosalar bolalar adabiyotining pedagogik va psixologik ta‘sirini chuqurroq o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- Adams, G. (1986), "The First Children's Literature? The Case for Sumer", *Children's Literature* 14: 1-30. <https://dx.doi.org/10.1353/chl.0.0533>
- Barakayev, R. (2011), "O'zbek bolalar adabiyoti qachon maydonga kelgan?", *O'zbek adabiy tanqidi antologiyasi* (Ed.: B. Karimov), pp. 386-396.
- Cash, T. F., Pruzinsky, T. (2002), *Body image: A handbook of theory, research, and clinical practice*, The Guilford Press.
- Dobrolyubov, N. A. (1937), *Polnoe sobranie sochineniy*, (Tom 4), Moskva: Akademiya nauk SSSR.
- Encyclopaedia Iranica. *Baharestan (Spring Garden)*. Retrieved from <https://iranicaonline.org/articles/baharestan-spring-garden>
- Erikson, E. H. (1968), *Identity: Youth and crisis*, W. W. Norton and Company.
- G'azzoliy, A. H. (2005), *Ey, farzand* (Y. Eshbek, Trans.), Toshkent: Movarounnahr.
- Jomiy, Abdurahmon (1979), *Bahoriston* (Sh. Shomuhamedov, tarjimasi). Toshkent: Yosh gvardiya.
- Kaykovus (2018), *Qobusnoma* (S. Dolimov va U. Dolimov, Eds.), Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Piaget, J. (1952), *The origins of intelligence in children*, Norton.
- Rekhta Dictionary. *Meaning of Muravvat*. Retrieved from <https://www.rekhtadictionary.com/meaning-of-muravvat>
- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (2022), *Tafsiri Hilol*, Vol. 2: 33. Toshkent: Hilol-Nashr.
- UrduPoint Dictionary. *Murawwat meaning in English*. Retrieved from <https://www.urdupoint.com/dictionary/urdu-to-english/murawwat-meaning-in-english/55570.html>
- Vygotsky, L. S. (1978), *Mind in society: The development of higher psychological processes*, Harvard University Press.
- Wickens, G. M. (1984), "Aklaq-e Jalali". *Encyclopaedia Iranica*, vol. I/7: 724, London: Routledge & Kegan Paul.
- Wickens, G. M. (1984), "Aqlāq-e Moḥsenī". *Encyclopaedia Iranica*, vol. I/7: 724–725, London: Routledge & Kegan Paul.